

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO'LIMI
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2024-5/3

**Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Сайдусманов Б.А. Узбекистонда транспорт коммуникация тизимининг халқ хўжалигига тутган ўрни	151
Сатимов Б.М. Оролбўйида ҳарбий истеҳкомларнинг келиб чиқиши тўғрисида айрим мулоҳазалар Тошпўлатов Б. Ацдижон давлат тиббиёт институтида илмий тадқиқот ишларининг йўлга қўйилиш жараёнлари	154
Хидирова Н.Ў. Қозиллик хўжжатларини ўрганишда "Мажъмуъ ал-васойик" ва "Жунг" асарларнинг аҳамияти	157
Шарапов С.С. Административная деление и торговые отношения юго-восточных городов Бухарского Эмирата в конце XVIII - начале XX века	159
Шерниязов Р.Х. Ривожланган ўрта асрлардаги Марказий Осиё ва Волга – Уралбўйида кечган этносиёсий жараёнларнинг айрим жихатлари	163
Этамбердиева Г.Л. Хорезмская область как один из основных центров туризма в Узбекистане	165
Эшанова Г.Н. Абу Ҳомид Фаззолийнинг диний маърифий қарашлари	174
Юлдашева Н.Н. Узбекистонда тарихий ўлқашунослик бўйича тадқиқотларни ривожлантиришда амалга оширилаётган ишлар	177

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Abdullayeva Sh.D. Ta'linda multimedya vositalarini qo'llanilishi	185
Abduraimova G.S. Adaptive learning systems: personalizing education for the digital age	188
Abdusamatov N. Arxitektura va qurilish sohasida o'quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida integratsiylash	190
Alibekova M.A. Breaking the sound barrier in the evolutionary journey of speedy english pronunciation	193
Aripova N.A. Kredit - modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarining tashkil etish muammolari	196
Azizova B.N., Islomova M.X. An innovative approach to teaching foreign languages through the flipped classroom method and its practical implementation with a focus on student motivation	199
Choriyev N.N. Talabalarga zardo'zlik buyumlarini ishlab chiqarishda ishlataladigan texnologik mashinalarni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	202
Dusmetova S.M., Sobirova N.U. Developing students' vocabulary learning strategies through task based instructions	205
Ergashev D. Modern methods of teaching english language in the higher educational institutions	208
Eshmanova Sh.I. Benefits of authentic materials in teaching second foreign language	210
Eshmurodov A.N. Loyihalangan rejaga asosan maktablarda chizmachilik fanidan darslarni modellashtirish	213
Ibodullayeva G.J. ESP talabalari uchun o'qishni o'rgatish usullari	215
Ibodullayeva G.J. Yoshi kattalarga ingliz tilini o'qitishda o'yinlarning o'rni	218
Ibrokhimova M.U. Enhancing english language learning through integrating web online mapping services	222
Islamova M.Sh., Xursanov D.D. Mustaqil ta'limning oliv harbiy ta'lim jarayonidagi muammolar	224
Jabborov B.I., Ibodullayeva M. Biologiya darslari sifat va samaradorligini oshirishda sinkveyn texnologiyasini qo'llash	227
Jonibekova M.U. Benefits of using reflective teaching methods for ESL educators	229
Jurayeva Z.Q. Improving information technology education through e-books	232
Karayeva D.X. Educational technology. The impact of technology on quality of the lessons	235
Karimov M.A., Berdiyev U.T. Uchta tekislik va unda nuqtaning proyeksiyalarini qurishni noananaviy usul bilan tushuntirilishi	238
Karimova J.Sh. Advantages of comparative learning in teaching a foreign language	242
Khalmirzayev I.V. Essentials for teaching youth in a patriotic spirit	245
Khamidov A.A. Peculiarities of texts and video clips used in teaching simultaneous interpreting	247
Khujayev B.T. Navigating modern technologies: unveiling useful and harmful aspects in the present era	250
Kosimova S.S. Formation of speaking skills in teaching a foreign language	253
Kurbanova M.M. Talabalar o'rtasida ingliz tilida bilim va malaka darajasini oshirish standartlari	255
Mamirov O.B. Kompyuter lingvistikasini o'qitish tamoyillari	258
Mamirov O.B. Kompyuter lingvistikasini o'qitishning didaktik modeli	261
Maxkamova D.B., Nabijonova N.M. Teaching communicative language in the classroom: summary of an effective approach	264
Maxmudova N.B. Nutqiy kompetensiyani shakllantirish omillari	266
Mirzabekova F.N., Anvarjonova N.A. The effect of sports on the body	270
Mirzaeva Z.Sh. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida kreativ fikrlash mazmun- mohiyatini rivojlantirish mexanizmi	273
Mirzaeva M.J. Methods of teaching a foreign language	275
Muratova D.M. Methodology for the formation of communicative competence of students	278
Narmurodova D. Linguodidactics as a methodological basis for teaching foreign languages	281
Nasrullaev O. Identifying the specific features of terms in the field of alternative medicine in the uzbek and english languages	284

BIOLOGIYA DARSLARI SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SINKVEYN TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

*B.I.Jabborov, katta o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro
M.Ibodullayeva, talaba, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

Аннотация. Mazkur maqolada dars jarayonida interfaol metodlarning ahamiyati hamda biologiya va tabiiy fanlarni o'tish jarayonida qo'llaniladigan "Sinkveyn" metodi haqida so'z yuritiladi.

Ключит сўзлар: metod, so'z, interfaol, Sinkveyn.

Аннотация. В данной статье говорится о значении интерактивных методов в ходе урока и методе «Синквейн», используемом при преподавании биологии и естествознания.

Ключевые слова: метод, слово, интерактив, Синквейн.

Abstract. This article talks about the importance of interactive methods during the lesson and the "Sinquain" method used in teaching biology and natural science.

Keywords: method, word, interactive, Sinkwine.

Kirish. So'ngi yillarda O'zbekiston ta'limgiz tizimida umumiy o'rta ta'limning sifatini oshirish, o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi keng qamrovli islohotlar natijasida boshlang'ich ta'limgizda sifatlari ta'limgiz xizmatlari samaradorligini oshirish, shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv sharoitida ongli yashashga qodir shaxsni kamol toptirish va rivojlantirishni ta'minlovchi imkoniyatlar salmog'i kengaymoqda. Shu bilan bir qatorda ta'limgiz jarayonida o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmini takomillashtirgan holda amaliyotga joriy etish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Ta'limgiz bosqichlaridan boshlab bilimlarni chuqur va mustahkam egallash, universal o'quv harakatlarini o'zlashtirish, erkin fikrlashni shakllantirishning birlamchi omili sifatida o'quvchilar nutqini o'stirish samaradorligiga yo'naltirilgan ta'limgiz jarayonini tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Dars jarayonida mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish ta'limgiz asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun ta'limgiz jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar olib kirildi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda didaktik o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ko'plab o'qituvchilar tomonidan interfaol metodlar, innovation pedagogik va axborot texnologiyalar turli didaktik o'yinlar dars jarayonlarida bevosita qo'llanmoqda. Bu orqali o'qituvchi dars jarayonida kamroq energiya sarflab, ko'proq ma'lumot berish orqali samaradorlikka erishadi hamda o'quvchilar ko'zlarini bilan ko'rishlari orqali ma'lumotlarni uzoq vaqt davomida xotiralarida saqlab qoladilar.

Metodologiya. «Ta'limgiz to'g'risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzuksiz ta'limgiz o'quvchilarni o'quv fanlari bo'yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatları, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan.

Ma'lumki, barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Shuni inobatga olib, Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalarini shakllanib, rivojlanib bormoqda.

Eng avvalo, interfaol metod – ta'limgiz jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faoliyoti oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni

qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi, bir xillikdan chetlashishga olib keladi. Interfaol ta'limgiz asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi,

o'quvchilar tashabbusiga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lif-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

Quyida eng ilg'or pedagogik interfaol usullardan namuna keltirib tahlil qilar ekanmiz, bu usullarning amaliy ahamiyati, foydasi haqida to'xtalib o'tamiz. Interfaol usullar o'quvchilarni dars jarayonida faollashtirish bilan bir qatorda, ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ta'lif-tarbiya ishlaring samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish, ularni amaliyatga joriy etishda yordam beradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uzlusiz ta'lif tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchilar zimmasiga yuklanadi. Shu sababli, uzlusiz ta'lif tizimi uchun biologiyadan zamon talablariga javob beradigan, ijodkor va ijtimoiy faol, raqobatbardosh pedagogik kadrlar tayyorlash maqsadida bakalavriat yo'nalishi talabalariga Biologiyani o'qitish uslubiyoti fani kiritilgan.

O'qitish jarayoni samaradorligini oshirish uchun, quyidagilarni inobatga olish zarur: o'qitish jarayonining maqsadiga erishish uchun uning mazmuniga mos holda ta'lif vositasi, metodi va shakllarini to'g'ri tanlash kerak; tanlanganlar ta'lif mahsuli ta'lif oluvchilarning maqsadi, motivi va qiziqishiga mos kelishi, hech bo'lmaganda esa qiziqish uyg'ota olishi; dars jarayonini to'g'ri loyihalash, darsning mazmuni va maqsadga erishish vositalarini to'g'ri tashkil etish, o'quv materialini turli zamonaviy usullar yordamida yetkazish, hamda, ta'lif oluvchilarning dars ma'lumotlarini ong'li o'zlashtirishiga erishish.

Muhokama va natijalar. No'annaviyda mashg'ulot shakllarining ham ahamiyati boshqacha. ya'ni unda ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbati, amaliy ishlar olib boriladi.

Eng muhimi noan'anaviyda mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kabi kutilgan natjalarga erishiladi.

Sinkvein-bu qofiyalanmagan beshta satrdan iborat she'r. Sinkwine-bu ijodkorlik, bilimlarning kontsentratsiyasi, ma'lum qoidalarga muvofiq amalga oshiriladigan o'z pozitsiyasining ifodasi. Sinkvein nutqni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. O'z fikrini izohlay olmaydigan o'quvchilar bilan ishlashning samarali usullaridan biri. Sinkveinni qanday tashkillashtirish qoidalari mavjud, shunday bo'lsada uni samaralitashkillashtirish pedagogning mahoratiga bog'liq.

Sinkveyn usulini tashkil qilishning quyidagi qoidasi bor:

-birinchi qator. Kim? Nima? Shu savollarga javob beradigan va mavzuni aks ettiruvchi bitta so'z.

-ikkinci qator. Qaysi biri? Asosiy fikrni tavsiflovchi ikkita so'zdan iborat sifat.

-uchinchi qator. Nima qiladi? Mavzu doirasidagi harakatlar haqida gapiradigan uchta fe'l.

-To'rtinchi qator. Muallif mavzu haqida qanday fikrda? Mavzuga munosabatni ko'rsatadigan to'rt so'zli ibora. Bu maqol, iqtibos, qanotli ibora yoki o'z formulasi bo'lishi mumkin.

- Besinchi qator. Kim? Nima? So'z, ibora, yozuvchining mavzuga shaxsiy munosabatini ifodalovchi birinchi so'zning sinonimi.

SINKVEIN talabaning bilimlarini sinash usuli emas, u boshqa vazifaga ega va bundan tashqari, universaldir. **SINKVEIN** -bu darsning har qanday bosqichida, mavzuni o'rganish, muktab o'quvchilarida uyushmalar darajasida nima borligini tekshirish usuli.

O'qituvchi yangi mavzuni boshlaydi va dars boshida **SINKVEIN** ni beradi: "Siz bu haqda nimani bilasiz? Nima deb o'ylaysiz? "Olingan natjalarni tahlil qilgandan so'ng, mavzuni o'rganish jarayonida talabaning ushbu kontseptsiya haqidagi g'oyalarini sozlash mumkin. Dars qizg'in boryapti, talabalar va o'quvchilar juda charchadi, mavzuni tushunish juda qiyin. Ularga o'rganilayotgan mavzuning biron bir qismida **SINKVEIN**ni taklif qilinadi va talabalarning yangi materialni qanday qabul qilganligini tahlilqilinadi. Nu usul mavzuni o'rganishdan uzoqlashmasdan faoliyat turini o'zgartirishning tezkor usuli.

Yangi materialni o'rganishning munosib natijasi, bu nafaqat bilimlarni, balki ta'lif oluvchilarning tushunish, baholash mulohazalarini, qiymat yo'nalishlarini namoyish etadi. Oxir oqibat, **SINKVEIN**larni batafsil tahlil qilishda o'qituvchi ilgari taxmin qilingan natijaga qanchalik erishganini ko'radi.

Biologiya darslarida SINKVEINni qo'llash juda yaxshi samara beradi. Ta'lim oluvchilar fikrlarini qisqa va lo'nda izohlashlari uchun imkon beradigan usullardan biri. Quyida bir necha SINKVEIN ni misol tariqasida keltiramiz. Tirik organismlar, tirik materiya mavzusini o'yganda quyidagi SINKVEINni ta'lim oluvchilarga tushuntirin, dars jarayonida ularning o'zlaridan SINKVEIN tuzishni talab qilinsa ularning faolligi, fikrashi, mavzuga mustaqil yondashuviga erishiladi.

Birinchi Sinkvein

- Tirik materiya-
- yashirin, noma'lum
- tug'iladi, o'sadi, rivojlanadi.
- qisqa ta'rifga sig'maydi.

-Hayot!Tirik!

Ikkinci Sinkvein

- hujayra
- oqsilli, kimyoviy tarkibga ega
- ta'sirlanadi, oziqlanadi, nafas oladi
- yer yuzining turik tabiatini tashkil etadi
- evolyutsiya

Shunga o'xshash talabalar o'zlarining SINKVEINlarini tuzib uni ochib beradilar.

Xulosa. No'annaviy usullarda mashg'ulot tashkil qilish shakllarining ham ahamiyati boshqacha, ya'ni unda ma'ruza, guruh yoki juft bo'lib ishlash, taqdimotlar, bahs, munozara, davra suhbat, amaliy ishlar olib boriladi.

Eng muhimi noan'anaviy usulda mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'z fikr, xulosalarini shakllantirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kabi kutilgan natijalarga erishiladi. Shu bilan bir qatorda mustaqil fikrash, mavzuga ijodiy yondashish, izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quvuslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017
2. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. –T.: O'z MU. 2003.- 66 b.
3. Ta'limda pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiyamaliy konferensiya materiallari. - T.:1999.-

212 b

4. Sharipova D., Hikmatova D., Safarova Z. Adaptation and active interaction of young children with environment //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B5. – C. 341-342.
5. Сафарова З. Т., Райимов А. Р., Санкова М. Адаптирование детей к новым социальным условиям //Научный журнал. – 2018. – №. 5 (28). – С. 20-22.
6. Сафарова З. Т., Сафарова З. Т., Фаромонова О. С. К. Миллий ҳаракатли спорт ўйинларининг мактаб ўқувчилари физиологик ривожланишидаги роли //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 385-388.
7. Жабборов Б. И., Санокулов Р. А. Актуальные задачи современного образования в области преподавания биологии //Polish science journal. – 2021. – С. 98.
8. Iskandarovich D. B., Tulisovna K. S., Nuriddinovich K. F. Methods for improving the quality of teaching in schools //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 6. – C. 105-107.
9. Iskandarovich D. B., Nilufar S., Nozima B. Biological and economic importance of forest gymnosperms //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – T. 22. – C. 231-233.
9. Жабборов Б. И., Санокулов Р. А. Актуальные задачи современного образования в области преподавания биологии //Polish science journal. – 2021. – С. 98.

UDC 159.91+81.33

BENEFITS OF USING REFLECTIVE TEACHING METHODS FOR ESL EDUCATORS

M. U. Jonibekova, teacher, Uzbekistan State University of World Languages, Tashkent

Annotatsiya. Hozirgi davrda ta'lim sohasi va o'qitish usullari, strategiyalari va yondashuvlari sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Yangi tendentsiyalar va texnologik yutuqlar bilan siz o'qituvchi sifatida o'qitishning eng yuqori darajasiga erishish uchun muntazam ravishda o'qitish jarayonini kuzatishingiz, o'ylashingiz, baholashingiz va o'zgartirishingiz kerak. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan muntazam o'z ustida ishlashni, yangi pedagogik o'qitish metodlarini dars jarayoniga